

## QADIMGI TURKIY YOZUVLAR TARIXI

**Zayniddinova Sevinch Sirojiddin qizi**

CHDPU talabasi

**Muratova Nafisa**

Ilmiy rahbar: Tilshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi

[mirkomilzayniddinov989@gmail.com](mailto:mirkomilzayniddinov989@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada qadimgi turkiy tilning kelib chiqishi, uning tarixi, O'rta Osiyo hududida mayjud bo'lgan qadimgi tillar va albatta ular qo'llagan yozuv turlari haqida izlanish olib borilgan.*

**Kalit so'zlar:** qadimgi turkiy til, grafika, rasmli yozuv, O'rxun-Enasoy yozuvi, Uyg'ur yozuvi, so'g'd yozuvi, Moniy yozuvi.

## ИСТОРИЯ ДРЕВНЕТУРЕЦКИХ НАДПИСЕЙ

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье проведены исследования о происхождении древнетюркского языка, его истории, древнем тиллате, существовавшем в районе Среднего Осуюо и, конечно же, о типах письменности, которыми они пользовались.*

**Ключевые слова:** древнетюркский язык, графика, изобразительное письмо, орхунско-энасайское письмо, уйгурское письмо, согдийское письмо, письмо мони.

### ANNOTATION

*In this article, research was conducted on the origin of the ancient Turkic language, its history, the ancient languages that existed in the Middle Osuyo region and, of course, the types of writing they used.*

**Key words:** ancient Turkic language, graphics, pictorial script, *Orhun-Enasai* script, *Uyghur* script, *Sogdian* script, *Moni* script.

Ona tilimizga ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan beba ho meros sifatida e'tibor qaratish, uni asrab-avaylash, boyitish, nufuzini oshirish barchamizning asosiy vazifalarimizdan sanaladi. Shu ma'noda, aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2016-yil 13-mayda imzolangan "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmonida hozirgi globallashuv davrida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, bugungi holati va istiqboli bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganish borasidagi qator muhim vazifalar belgilab berildi. Farmonda qayd etilganidek, "O'zbek tilining har tomonlama taraqqiy topishi va adabiy til sifatida maydonga chiqishida qadimgi turkiy til katta hissa qo'shganini alohida ta'kidlash tabiiydir".<sup>10</sup> Qadimda yozuvlar hamda ular bilan bog'liq fanlar qanday yuzaga kelganligi haqida to'xtalib o'tamiz. Ma'lumki, grafika tilshunoslikning bo'limi bo'lib, unda ma'lum bir tilning yozuv sistemasi o'rganiladi. Yozuvning dastlabki bosqichi sifatida rasmli yozuv e'tirof etiladi. Rasmli yozuvga ibtidoiy san'at asos bo'lgan. Yozuvning bu turi faqat olamni anglash ifodasi sifatida emas, balki insoniyatning badiiy ehtiyojini qondirish yoki sehr-jodu maqsadlarda qo'llangan. Yozuvning bu turi qachon paydo bo'lgani to'g'risida aniq dalillar yo'q bo'lsa-da, arxeologlar "ibtidoiy san'atning ilk izlari sifatida so'nggi tosh davriga mansub"ligini aytadilar. Neolit davrida esa ma'lum darajada ishlangan alifbo paydo bo'ldi. Qadimgi turkiy til davri barcha turkiy urug' va qabilalarning umumiyligi tili sifatida V-X asrlarni o'z ichiga oladi. Qadimgi turkiy til kelib chiqishi va rivojlanishi jihatidan oltoy va xun tili davrlari bilan uzviy bog'langan. Bu davr tili haqida B.Vladimirsov quyidagi fikrlarni bayon qiladi: "...mo'g'ul tili turk va tungus tillari bilan birga o'zlarining bir umumiyligi ega bo'lganki, uni shartli ravishda oltoy tili deb atash mumkin. Bu davr turkiy tillar taraqqiyotining birinchi, eng qadimgi bosqichi bo'lib, fanda u oltoy

<sup>10</sup> 1 "Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида"ги Фармон. 2016 йил 13 май. – Б. 1.

til birligi nomi bilan yuritiladi. Bu davrda hali turkiy tillar mo‘g‘ul tillaridan mo‘g‘ul tillari esa, o‘z navbatida, tungus-manchjur tillaridan ajralib chiqmagan edi, ular bir til birligi sifatida qo‘llanar edi. Shunday qilib, qandaydir eng qadimgi tilning bo‘lganligi taxmin qilinadi. Bu tilga xos umumiy leksik, fonetik va grammatik belgi-xususiyatlar esa hozirgi mo‘g‘ul, turkiy va tungus-manchjur tillarida saqlanib qolgan”<sup>11</sup> Yozma manbalarda, turkiy adabiy til turlicha atalgan. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘atit turk”da o‘z davri yetakchi dialektlarini (sharqiy dialektlarni) birlashtirib turk tili, qolganlarini esa o‘z nomlari (o‘g‘uzcha, qipchoqcha) va b. bilan ataydi. Yozuv qanday paydo bo‘lgan, degan savolga olimlar turlicha javob beradilar. Turkiy tillarning eng qadimgi davrlardagi taraqqiyotining ikkinchi bosqichi xun davri hisoblanadi (eramizgacha III asrdan eramizning IV asrigacha). Bu davrda Markaziy Osiyodan Sharqiy Yevropagacha bo‘lgan katta hududda qudratli Xun imperiyasi tuziladi. Bu imperiya juda ko‘p turk-mo‘g‘ul, tungus-manchjur va boshqa qabilalarni birlashtiradi. Eramizning I asri oxirlarida o‘zaro ichki urushlar natijasida Xun davlati ikki qismga – G‘arbiy xun va Sharqiy xun davlatlariga bo‘lindi. Keyinchalik bular asosida g‘arb va sharqda turklar boshchiligidagi bir qancha qabila ittifoqlari mustahkamlanishi ko‘p jihatdan turkiy qabilalar va tillarning rivojlanishiga katta ta’sir qildi, ular umumiy belgilarini saqlagan holda, asta-sekin o‘zlariga xos xususiyatlarni ham hosil qila boshlaydilar, natijada bu barcha turkiy tillarning ikki guruh – sharqiy va g‘arbiy turkiy tillarga bo‘linishiga olib keldi.

O‘rxun-Enasoy: Bu yozuv yodgorliklari turkiy tillarning qadimiy xususiyatlarini mukammal aks ettira olmasa-da, turkiy tillarning tarixiy taraqqiyot bosqichiga oid muhim manba sifatida ahamiyatlidir. O‘rxun-Yenisey yodgorliklari, asosan, toshlarga o‘yib bitilgan yozuvlardan, idish, tangalar kabi buyumlarda va qog‘ozlarga yozilgan bitiklardan iborat bo‘lib, bir qancha vaqtlar olimlar uchun o‘qilishi jumboq bo‘lib qoladi. Shunga ko‘ra u qadimgi skandinav-german tillariga oid run, runiy (runa-sirli, yashirin demakdir) yozushi nomi bilan ham yuritiladi. Sibirda surgunda bo‘lgan shved ofitseri F.Stralenberg 1730-yilda hali tarixda noma’lum bo‘lgan va hech kimsaga tushunarli bo‘lmagan bu yozuvni yuqoridaqidek

<sup>11</sup> Владимирцов Б. Работы по монгольскому языкоznанию. — М.: Восточная литература, 2005. — С 237.

nomlagan edi. Sug'd xatining takomillashgan shakli mazkur alifboning shakllanuvida asos bo'lib xizmat qilgan; unga ayrim o'zgartishlar kiritish, yangi belgilar orttirish yo'li bilan yozuv turkiy tilga moslashtirilgan. Bu madaniy jarayon ko'k turk xoqonliklari davrida, taxminan, VI yuz yilliklarda yuz bergan.

Uyg'ur yozuvi: Hozir "uyg'ur yozuvi" nomi bilan atalayotgan qadimgi turkiy alifbo o'tmish manbalarida bir qancha nom bilan yuritilgan. Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida uni "turkcha yozuv" deb tilga oladi. Alisher Navoiy maktublarining birida uni "turkcha xat" deb atagan. Manbalarda mazkur yozuv "uyg'ur xati", "mo'g'ul xati" deb ham yuritilgan. Chunonchi, XIII asrda yashab, ijod etgan shoirlardan Puri Bahoi Jomiy she'rlaridan birida uni "uyg'ur xati" (xatt-i uyg'uri), Ibn Arabshoh "Ajoibu-l-makdur fi-navoibi Taymur" otli asarida "uyg'ur xati", "Fokixatu-l- xulafo" asarida esa "mug'ul xati" degan. Ushbu yozuv "Hibatu-lhaqoyiq"ning 1480-yili Istanbulda Abdurazzoq baxshi ko'chirgan nusxasida "mo'g'ul xati" deb atalgan.<sup>12</sup>

Moniy yozuvi: Ushbu alifbo moniychi turklar orasida amal qilgan. Milodiy 247-yili Eronda Moniy boshchiligidagi yangi diniy oqimga asos solindi va o'sha kezlardan boshlab Shom (Suriya)ning Palmira shahrida qo'llanilgan yozuv shakli asosida tuzilgan moniy yozuvi ham amal qila boshladi. Keyinchalik ushbu yozuv moniy dini bilan birga O'rta va Markaziy Osiyoga ham kirib keldi. Eramizning VIII asrida moniylik uyg'ur xoqonligining davlat dini sifatida amal qilgan chog'larda bu yozuv ham turklar orasida keng yoyildi. Moniy mazmunli turkiy yodgorliklar bizgacha ikki - moniy va uyg'ur yozuvarida yetib kelgan.

Sug'd yozuvi: U miloddan avvalgi III asrlarda oromiy xati negizida shakllangan bo'lib, milodning XI asriga qadar sug'dlarning milliy yozuvi sifatida amal qilgan. Uzoq tarixiy birodarlik, qo'shnichilik va birga yashash ta'sirida ushbu yozuv turkiy xalqlar uchun ham xizmat qila boshlagan. Turkiy xalqlar orasida keng qo'llangan uyg'ur yozuvi ham ana shu xat negizida shakllandi. Braxma yozuvi: U bo'g'in yozuvi bo'lib, qadimgi sanskritcha alifbo negizida shakllangan. Turon zaminiga buddizm ta'sirida kirib kelgan.

<sup>12</sup> Qosimjon Sodiqov Uyg'ur turk yozuvi. 1989.

## XULOSA

Qadimgi turkiy til o'zbek va boshqa turkiy tillarning shakllanishiga asos bo'lgan. Ammo qadimgi turkiy tilning o'zi ham ma'lum taraqqiyot bosqichlarini boshidan kechirgan, shakllangan, ma'lum bir qolipga tushgan. Ma'lumki, qadimgi turkiy til davri turkiy xalqlar tili, tarixiylikning ildizlarini bilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning natijasida hozirgi adabiy tilning qonuniyatlarini teranroq anglash imkonи yuzaga chiqdi. Yaqin o'tmishta nazar tashlaydigan bo'lsak, sho'rolar davrida tilimizga quyи darajadagi til sifatida qaraldi. Bugun mustaqillik yillarida o'zbek tili qaddini tiklayotgan, butun bir millatning milliy tili sifatida bo'y ko'rsatayotgan bir davrda qayd etilgan farmonning qabul qilinishi uning qo'llanish doirasini kengaytirish, tarixiy ildizlarini chuqur o'rganish O'zbek tilining bugungi milliy til darajasiga ko'tarilishida XX asr boshlarida yashagan ziyolilarning o'rni katta. Biz yuqorida eslab o'tgan farmonda ham o'z hayotini xalqimizning ma'naviy kamolotiga, ona tilining ravnaq topishiga bag'ishlagan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy kabi ma'rifatparvarlarimizning xizmatlari alohida tilga olinadi. Ular sho'rolar siyosati avjiga chiqqan paytda o'zbek tilining so'z yasash imkoniyatlaridan foydalangan holda xalqda milliy g'urur, ona tiliga hurmat tuyg'usini shakllantiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиши тўзрисида"ги Фармон. 2016 йил 13 май.
2. *Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'atit turk, 1-tom, Toshkent, 1960.*
3. *Владимирцов Б. Работы по монгольскому языкоznанию. — М.: Восточная литература, 2005.*
4. *Бартольд В.В. Сочинения. Том 5. - Москва: Наука, 1968.*
5. *Qosimjon Sodiqov Uyg'ur turk yozuvi. 1989.*
6. *B.Abdushukurov QADIMGI TURKIY TIL. Toshkent-2019.*
7. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)